

"UNICON-SOFT" MChJ nomidan direktor **XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'LI**, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin Operator deb ataluvchi bir tomondan va "TOSHKENT AERO" IBK nomidan **ANVAR MUXAMMADIYEV BAXODIROVICH**, Yo'riqnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi bundan keyin Abonent deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydagi "IJRO.GOV.UZ" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son Qarorini bajarish maqsadida mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

#### ATAMALAR VA TA'RIFLAR

**Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimi, IJRO.GOV.UZ (bundan keyin - Tizim)** – bu Operator tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo'lgan, davlat organlarida elektron hujjat aylanishi va ijro intizomining nazoratini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy kompleks.

**Abonent** – Operator bilan Tizimdan foydalanib Elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

**Foydalanuvchi** – o'z lavozim majburiyatlari sababli Tizimning oxirgi foydalanuvchisi hisoblanadigan, Abonent xodimi bo'lgan (yoki unga tenglashtirilgan shaxs) jismoniy shaxs.

**Tizim moduli** – Abonentga qo'shimcha imkoniyatlarni beruvchi va Tizimning asosiy funksionali hamda vazifasiga ta'sir ko'rsatmaydigan Tizimning qismi. Moduldan foydalanish Abonent uchun ixtiyoriy hisoblanadi.

**Shaxsiy kabinet** – Abonentga Foydalanuvchilarni qo'shish/chiqarib tashlash orqali mazkur Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanish, shuningdek statistika ma'lumotlarini ko'rib chiqish va Foydalanuvchilarning faolligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradigan Tizimning bo'limi.

**Elektron raqamli imzo (bundan keyin - ERI)** - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Operator Abonentga IJRO.GOV.UZ Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimining ishlashini ta'minlash xizmatlari kompleksi (bundan keyin – «Xizmatlar»)ni ko'rsatadi, bu xizmatlar quyidagilardan iborat:

- Abonentni Tizimda ro'yxatga olish va aktivatsiya qilish;
- Abonentga Elektron raqamli imzo (ERI) kalitlarini topshirish;
- Tizimdan foydalanishni o'rgatish va Abonentni texnik qo'llab-quvvatlash.

1.2. ERI kalitlari Abonentga Tizimga birinchi marta ulanganda himoyalangan apparat vositasida bir marta taqdim etiladi va keyinchalik Tizimda Abonent xodimlarini identifikatsiyalangan avtorizatsiya qilish uchun foydalaniladi.

1.3 Tizimning huquqiy egasi hisoblangan Operator Tizimga egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarishni, shu jumladan Tizimning to'liq texnik ishlashini ta'minlash, kuzatishni va Tizimdan foydalanish qoidalarini belgilashni amalga oshiradi.

#### 2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBBLAR TARTIBI

2.1. ERIni o'z ichiga olgan bir dona **himoyalangan apparat** vositasining narxi QQSsiz 260,000, 00 (ikki yuz oltmish ming) so'mni tashkil qiladi va bir marta to'lanadi.

2.2. ERIni o'z ichiga olgan himoyalangan apparat vositasining umumiy miqdori 2 donadan iborat va ERIni o'z ichiga olgan himoyalangan apparat vositasining umumiy summasi QQSsiz 520,000 (besh yuz yigirma ming) so'mni tashkil qiladi.

3.4.1. O'zR ijro, sud yoki qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan ehtimoliy cheklovlarni hisobga olgan holda ushbu shartnomada ko'zda tutilgan uzluksiz Xizmatlardan foydalanish.

3.4.2. Texnik konsultatsiya olish uchun va Tizimning ishlash masalalari bo'yicha telefon yoki elektron pochta orqali Operatorga murojaat qilish.

3.5. Xizmatlardan foydalanishni vaqtincha to'xtatish zarur bo'lgan holda, Abonent bu haqda to'xtatib turish paytidan kamida 5 (besh) ish kuni oldin Operatorni xabardor qilishga majbur. Aks holda Tizimdan haqiqiy foydalanish faktidan qat'i nazar Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilgan bo'lib hisoblanadi.

#### **4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

4.1. O'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha Xizmatlarga haq to'lash muddatlarini buzganligi uchun Operator Abonentdan har bir kechiktirilgan kun uchun qarzdorlik summasining 0,4 foiz (nol butun o'ndan to'rt foiz) miqdorida, ammo mazkur Shartnoma narxidan 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda penyani undirish huquqiga ega.

4.3. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar, agar bajarmaslik uchinchi shaxslarning aybi bilan yuz bergan bo'lsa. Bunday holda Tomonlar bunday bajarmaslik sabablarini bartaraf etish uchun maksimal darajada harakat qilish majburiyatiga ega.

4.4. Operatorning javobgarlik zonasi faqat mazkur Shartnomada belgilangan majburiyatlar bilan cheklangan.

4.5. Operator Tizimda aylanadigan hujjatlarning mazmuni uchun javobgar bo'lmaydi, ularni o'zgartirish yoki ularga boshqa tarzda ta'sir ko'rsatish va ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilishga haqli emas, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga erishish imkoni bo'lmagan holda yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

#### **5. KONFIDENSIALLIK**

5.1 Tomonlarning mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun asoslangan ravishda zarur bo'lgan axborot bilan almashadilar. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga tegishli bo'lgan, bir tomon tarafidan ikkinchi tomonga taqdim etiladigan, unga nisbatan qonunlar bilan cheklangan foydalana olish rejimi ko'zda tutilgan barcha yozma yoki og'zaki axborot yoki axborotni uzatuvchi tomon boshqa tomonga bunday axborot konfidensial hisoblanishi to'g'risida, ushbu bilan konfidensial axborot («Konfidensial axborot») hisoblanishi to'g'risida oshkora xabardor qilgan. Konfidensial axborotga shu jumladan shaxsiy va tijorat, kasbga, xizmatga oid, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa turdagi sirlardan iborat ma'lumotlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, axborot va telekommunikatsiya tizimlarini sozlash uchun boshqaruv axboroti kiradi. Konfidensial axborot undan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalaniishi, uning butunligi, saqlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi kerak.

5.2. Mazkur Shartnomaga muvofiq Konfidensial axborotni taqdim etuvchi tomon («Uzatuvchi tomon»)ning yozma roziligini olmasdan ushbu Konfidensial axborotni oluvchi Tomon («Oluvchi tomon») Konfidensial axborotning qandaydir qismidan ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanmaydi (i), Konfidensial axborotni yoki uning qismini asoslangan ravishda mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda Konfidensial axborotdan foydalana oladigan va ular mazkur Shartnoma bo'yicha tomon bo'lgan holdagi kabi Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlashga rozi bo'ladigan Oluvchi tomon xodimlari va maslahatchilari (shuningdek subpudratchilar)ga tegishli bo'lmagan qandaydir shaxslar yoki tashkilotlarga taqdim etmaydi (ii), Konfidensial axborotdan noqonuniy foydalanishga yo'l qo'ymaydilar (iii).

5.3. Oluvchi tomon Konfidensial axborotni yoki uning qismini oshkor qilinishi uchun javobgar bo'lmaydi, agar u bundan Konfidensial axborot uni olish vaqtida hammaga tegishli

hisoblanganligi yoki keyinchalik Oluvchi tomonning aybisiz bunday bo'lganligini (i); bu axborot olingunga qadar Oluvchi tomonga ma'lum bo'lgan yoki uning ixtiyorida bo'lganligini (ii); Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlash majburiyatining buzilishi bo'lmaganda (iii) Oluvchi tomonga Uzaturvchi tomon bo'lib hisoblanmaydigan manbadan ma'lum bo'lganligini isbotlay olsa.

5.4. Agar Oluvchi tomon qonunga ko'ra qonun hujjatlariga muvofiq Konfidensial axborot oshkor qilinishini talab qilish vakolatiga ega davlat hokimiyati organlariga qandaydir Konfidensial axborotni oshkor qilishga majbur bo'lsa, u holda bunday Tomon bu fakt to'g'risida zudlik bilan Uzaturvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Shu bilan birga Uzaturvchi tomonni lozim darajada xabardor qilingan holda, ushbu bandga muvofiq Konfidensial axborotni oshkor qilayotgan Uzaturvchi tomon Konfidensial axborotni oshkor qilmaslik to'g'risidagi o'z majburiyatini buzgan deb hisoblanmaydi. Bunday oshkor qilingan holda Oluvchi tomon Konfidensial axborotning muhofaza qilinishini ta'minlash uchun unga bog'liq bo'lgan hamma xatti-harakatlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.5. Konfidensial axborot Uzaturvchi tomonning mulki hisoblanadi va bu axborot mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun kerak bo'lmay qolgandan keyin Uzaturvchi tomonning talabi bo'yicha zudlik bilan bunday tomonga qaytarilishi kerak yoki Oluvchi tomon yoki ushbu bo'lim qoidalariga muvofiq bunday Konfidensial axborot Oluvchi tomon tarafidan taqdim etilgan boshqa qandaydir tomon tarafidan ko'chirilgan barcha nusxalari bilan birga yo'q qilinadi.

## **6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART**

### **6.1. Tomonlar:**

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

6.2. Tomonda mazkur Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **7. BARTARAF ETIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)**

7.1. Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat mazkur Shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tusdagi voqealar oqibatida paydo bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh.k. tushuniladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonga xabar qilishi kerak. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari to'g'risida xabar qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI**

8.1. Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Tomonlar mazkur shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko'ra Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Shartnomaning bekor qilinishini boshlab beruvchi Tomon taxmin qilingan bekor qilish sanasidan 15 (o'n besh) kalendar kun oldin o'zining qarori to'g'risida xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o'zaro hisob-kitoblari amalga oshirilganidan keyin shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

## **9. YAKUNIY QOIDALAR**

9.1. Mazkur Shartnoma va unga bog'liq holda Tomonlar tarafidan yaratilgan barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun talablariga muvofiq yuridik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi va elektron shaklda bajarilganligiga asoslanib nizolashilishi mumkin emas.

9.2. O'zgartirishlar va qo'shimchalar qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li orqali Shartnomaga kiritiladi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari va qo'shimcha kelishuvlari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Shartnoma shartlarida ko'zda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.